

XORAZM FILIALI SUD-BIOLOGIK BO‘LIMIDA 2016-2020 YILLARDA DALILIY ASHYOLARDA O‘TKAZILGAN AJRALMA TEKSHIRUVLARINING TAXLILLARI

A.S. Masharipov

Z.A. Sobirova

*Respublika sud-tibbiy ekspertiza
ilmiy-amaliy markazi Xorazm filiali*

В статье приведены анализы и динамические показатели исследования вещественных доказательств с места происшествия на наличие выделений человеческого организма и их групповой принадлежности. Также освещена деятельность судебно-биологического отдела Хорезмского филиала научно-практического центра судебно-медицинской экспертизы

Sud-biologik ekspertiza predmeti sifatida biologik kelib chiqishga ega bo‘lgan to‘qima, organizm suyuqliklari va izlarining tur va guruhiiy mansubligini aniqlashga qaratilgan tekshiruvlar xizmat qiladi. Sud-biologik tekshiruvlar jarayonida qon, sperma, ter, so‘lak, qin ajratmalari, siydik va ular tomonidan xosil qilingan izlar, odam soch tolalari, organ va to‘qimalari, suyak va ularning fragmentlari obyekt sifatida xizmat qiladi. Odam tanasi qismlari va organlari, suyuqliklari, ularning izlari biologik obyekt manbasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida biologik kelib chiqishga ega bo‘lgan obyektlarni tekshiruvga yaroqliligi va identifikatsion masalalarni yechish imkoniyati bevosita voqea joyini erta muddatlarda va to‘g‘ri ko‘zdan kechirish, obyektlarni topish va fiksatsiya qilish sifati bilan bog‘liq. Jinsiy erkinlik va daxlsizlikka jinoiy tarzda tajovuz qilish kabi jinoyatlarda, shular bilan birga jaroxatlar bilan bog‘liq jinoyatlarda tergov va sud jarayonida u yoki bu shaxsning tegishli jinoyatga aloqadorligini aniklash uchun daliliy ashyolarda topilgan biologik obyektlarni kimga tegishliligini aniklash ahamiyatli jarayon xisoblanadi.


Dolzarbliqi. Jinsiy jinoyatlar bilan bog‘liq barcha tergov ishlarida voqea joyidan olingan daliliy ashyolarda odam ajralmalarining mavjudligi va ularning ish bo‘yicha o‘tuvchi shaxslarning guruhlari bilan mos kelishi tekshiriladi. Bu o‘z navbatida gumondorning jinoyatga aloqadorligini tasdiqlovchi dalil sifatida baholanadi.

Tekshiruv maqsadi. 2016-2020 yillarda Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Xorazm filiali (RSTEIAMXF) sud-biologik bulimida o‘tkazilgan ajralma tekshiruvlarini mikdoriy va sifatiy jixatdan taxlil kilish va o‘sish dinamikasini baholash.

Materiallar va usullar. O‘tkazilgan izlanishlar RSTEIAM Xorazm filialida sud-biologik tekshiruvlarning 2016-2020 yillardagi amaliy materiallarida bajarilgan. Izlanish jarayonida ajralma tekshiruvlari bo‘yicha ekspert xulosalari va dalolatnomalari taxlil kilingan. Ko‘llanilgan material asosan mualliflarning xususiy kuzatuvlari va bo‘limning boshka ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan ekspertizalariga asoslangan. Tekshiruvlar

amaliyot uchun tavsiya kilingan, umumiy tan olingan va keng qo'llaniladigan usullar bilan olib borilgan.

Natijalar. Ajralma tekshiruvlari bo'yicha karor va yo'llanmalar asosida o'tkazilgan ekspertiza va tekshiruvlar 5 yil davomida jami 760 tani tashkil kilib, 2016 yilda 156 ta, 2017 yilda 59 tani, 2018 yilda 144 tani, 2019 yilda 193 tani, 2020 yilda 59 tani tashkil qilgan. Ularning 405 tasi xukuk-tartibot idoralaring qarorlari, 355 tasi esa yullanmalar asosida o'tkazilgan. Ekspertizalarni o'tkazish davomida 2016 yilda 422 predmet, 2017 yilda 181 predmet, 2018 yilda 422 predmet, 2019 yilda 789 predmet va 2020 yilda 708 predmet tekshirilgan. Taqdim qilingan daliliy ashyolarda ajralma mavjudligini va ularning guruh mansubligini aniqlash bo'yicha: 2016-2020 yillar davomida tekshirilgan obyektlar soni (jami 42598 tani tashkil qilgan) diagrammada keltirilgan.



RSTEIAM Xorazm filiali sud-biologik bo'limida ajralma tekshiruvlari bo'yicha 2016-2020 yillardagi ish faoliyatini mikdoriy sifati ko'rsatkichlari bo'yicha taxlili shuni ko'rsatadiki, oxirgi yillarda jinsiy jinoyatlar sababli o'tkazilayotgan ekspertizalarni sonini ortishi ajralma tekshiruvlariga bo'lgan talabni yanada oshishiga olib kelgan. Taxlil yillari davomida tekshirilgan 42598 ta obyektlarning 35314 tasi to'plash (Seropyan) usuli bo'yicha tekshiruvlarni tashkil kiladi, bu jami tekshirilgan obyektlarning 82,9% ni tashkil qilgan bo'lib, tekshirilgan obyektlarning 1700 tasida musbat, 33614 tasida manfiy natija olingan.

Xulosa. O'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, yildan yilga tergov organlari tomonidan odam organizmi ajralmalarini tekshirish bilan bog'liq ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorlarni ortishi kuzatilmoqda. Albatta bu o'z navbatida tergov organlariga surishtiruv tergov jarayonidagi daliliy bazani mustakamlashda amaliy yordam ko'rsatmokda. Ammo yildan yilga ekspertizalardagi predmetlar sonining ortib borishi xar bir ekspertizaga bo'lgan e'tiborni oshirishni talab qiladi. Bulardan tashkari tekshiruvlardagi manfiy natijaning ortishini, ko'pchilik xollarda voqea joyidan asossiz ravishda ko'p daliliy ashyolarning olinishi bilan izohlash mumkin. Bu esa o'z navbatida asossiz ravishda ekspertizaga taqdim qilinayotgan predmetlar sonining ortishiga va iqtisodiy jixatdan samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.